



BO‘LAJAK NEMIS TILI O‘QITUVCHILARI FAOLIYATIDA NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411067>

Mamadaliyev Elyor Axmadjonovich

Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nutq texnikasi, notqlik san‘ati, nutq madaniyati haqida so‘z yuritiladi hamda o‘qituvchining faoliyatida nutq texnikasi qanchalik muhim o‘rin tutishi haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi. Shuningdek, nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolar keltirib o‘tiladi va ularga yechim bo‘luvchi bir qancha takliflar keltirib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *notqlik san‘ati, ideal notiq, nutq odobi, suhango‘ylar, nutq texnikasi, til va nutq, nutqning ravonligi, dialektizm, varvarizm, jargon*

РАЗВИТИЕ РЕЧЕВОЙ ТЕХНИКИ И КУЛЬТУРЫ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Мамадалиев Элёр Ахмаджонович

Старший преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы техники речи, ораторского искусства и культуры речи, а также освещается важность техники речи в деятельности учителя. Также рассматриваются проблемы, связанные с культурой речи, и предлагается ряд решений.*

Ключевые слова: *ораторское искусство, идеальный оратор, речевой этикет, ораторы, техника речи, язык и речь, беглость речи, диалектизм, варваризм, жаргон*

DEVELOPMENT OF SPEECH TECHNIQUES AND CULTURE IN THE ACTIVITIES OF FUTURE GERMAN LANGUAGE TEACHERS

Mamadaliyev Elyor Akhmadjonovich

Senior lecturer of Namangan State University

Annotation: *This article discusses speech techniques, oratory, and speech culture, and provides information on how important speech techniques are in a teacher's work. It also discusses problems related to speech culture and suggests several solutions to them.*

Keywords: *oratory, ideal orator, speech etiquette, speakers, speech techniques,*



language and speech, fluency of speech, dialectism, barbarism, jargon

KIRISH

Ma'lumki, jamiyatning keajagini qurishda o'zining katta hissasini qo'shuvchi insonlar o'qituvchilardir. Bugungi globallashtirish davrida yoshlarning ma'naviyatini o'stirishga xizmat qiluvchi hamda ularning vatanga muhabbat ruhida tarbiyalovchi insonlar, hech shubhasiz, o'qituvchilardir. O'qituvchining pedagogik mahoratida uning nutqi, notiqlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi yillarda ushbu muammoga jiddiy e'tibor qaratildi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda avvalo milliy istiqloq mafkurasimuhim ahamiyatga ega. Mafkuramizning yuksak ustunlaridan biri millat tilidir. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa hujjatlarda barkamol avlod tarbiyasida o'z ona tiliga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish e'tirof etilgan. Yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida o'qituvchining nutqi, uning notiqlik san'ati alohida e'tibor kasb etadi. O'qituvchining nutqiy madaniyatini shakllantirish uning

kasbiy faoliyatida naqadar muhim ahamiyatga egaligi to'g'riida mulohaza yuritir ekanmiz, avvalo, notiqlik san'atining kelib chiqish tarixini bilish lozim. Professional notiqlik san'ati Yunonisto, O'rta Osiyo va Hindistonda o'zining uzoq tarixiga ega.

ASOSIY QISM

Tarixchi olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, notiqlik san'atiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solingan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflarning zimmasiga yuklatilar edi. Ular notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuri, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba Qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me'morchilik san'atlari bilan birga notiqlik san'ati ham muhim san'at asari sifatida e'tirof etilgan. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita ekanligi uchun Yunonistonda uni "San'atlar shohi" deb atashgan.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda "Notiqlik san'ati"ning eng takomillashgan va rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda notiqlik san'atining quyidaho uchta qonuniyati qizg'in takomillashtirilib, notiqning unga jiddiy e'tibor berishi talab qilingan:

- Tinglovchiga



tushuntirish(ma'lum bir g'oyani).

- Tinglovchinign tafakkurini uyg'otish(fikrini, ongini, maqsadini).
- Tinglovchini o'ziga jalb qilish(huzur-halovat va qoniqish hissini uyg'otish asosida).

Notiqlar ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda "tinglovchilarga halovat bag'ishlash" orqali odamlarni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchlariga sadoqatli bo'lishga, eng yaxshi insoniy fazilatlarga amal qilib, ularni doimo bajarishga, odob va axloq qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Bu ularning asosiy vazifasi hisoblanardi. Yunonistonda notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari hamda noyob asarlari bialn jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Sokrat(Suqrot), Platon(Aflotun), Dinarx, Giperid, Gorgiy(Horgiy), Demosfen, Kvintilian kabi namoyondalar Yunonistonning mashhur davlat arboblari bo'lib yetishganlar.

Mamlakatimizda notiqlik san'atining rivojlanishi O'rta Osiyo madaniyati tarixi bilan bog'liq bo'lib, nutq madaniyati hamisha o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelgan. O'rta Osiyoda notiqlik san'atining xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san'ati ustalarini nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat

beradi. Movarounnahrda notiqlik

san'ati voizlik deb atalgan. Voizlik, ya'ni va'zxonlik "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosini anglatgan. "Va'z" so'zi arab tilidan pand-nasihati ma'nosini beradi. Va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs Voiz deb aytilgan. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his-tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, qadimgi Sharqda hukmdorlar ushbu san'at namoyondalari xizmatini yuksak darajada qadrlaganlar. IX asrdan boshlab, davlat hukmdorlari notiqlik bilan bog'liq barcha tadbirlarni maxsus tayyorgarlikka ega so'z ustalariga yuklab, ularni voizlar deb ataganlar.

Nutq madaniyati - til normalarini egallamoq, talaffuz, urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonuniyatlarini chuqur bilmokdir. Shuningdek, tilning tasviriy vositalari har xil sharoitlarga mos, maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. nutqda til - fikr almashish quroli, o'qituvchi qalbinign oynasi, o'qituvchinign dars berish uslubini, pedagogic mahoratini to'liq namoyon qiluvchi vosita. Nutqda - tildagi rang-barang vositalar o'z ifodasini topsa, bunday nutq - boy nutqdir. Nutq madaniyati - ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zguvchi. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli - yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir.

O'qituvchi uchun nutq madaniyati va nutq texnikasi juda ham zarur bo'lgan omil sanaladi. O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik



tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltirilgan bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, o'qituvchining og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Ya'ni, notiq-o'qituvchi o'quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o'z nutqining o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayitganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jo'n, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lganhjar qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga

harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan jarayon. Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqning o'rinli yoki o'rinsiz ekanligini belgilashda namoyon bo'ladi. O'qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi. Demak, u o'z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgartirishi, doimo nutqning ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi, o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo'lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. O'quvchilar diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ularni qiziqitira olish o'qituvchi mutq texnikasining asosiy xususiyatlaridandir.

Yo'nalish	Mazmuni	Qo'llaniladigan texnologiyalar	Natija
Nutq texnikasi tushunchasi	O'qituvchining to'g'ri, ravon, aniq va ifodali gapira olish ko'nikmasi	Fonetik mashqlar, artikulyatsiya treninglari	To'g'ri talaffuz va nutq aniqligi
Fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish	Nemis tilidagi tovushlar va urg'uni to'g'ri qo'llash	Audio materiallar, shadowing usuli, talaffuz dasturlari	Tabiiy talaffuz va eshitish qobiliyati rivoji
Nutq tezligi va ravonligi	Gapirishda tabiiy tezlikni saqlash va pauzalarni to'g'ri qo'llash	Dialog va monolog mashqlari, rol o'yinlari	Ravon va ishonchli nutq
Intonatsiya va ekspressivlik	Gapning ma'nosiga mos ohang va hissiy	Video darslar, drammatizatsiya, nutqni	Ifodali va ta'sirchan nutq



Yo'nalish	Mazmuni	Qo'llaniladigan texnologiyalar	Natija
	ifoda berish	yozib tahlil qilish	
Kommunikativ kompetensiya	Turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish	Kommunikativ metodlar, interaktiv o'yinlar, debatlar	Erkin va samarali muloqot
Axborot texnologiyalaridan foydalanish	Zamonaviy raqamli vositalar orqali nutqni rivojlantirish	Mobil ilovalar, AI platformalar, onlayn kurslar	Mustaqil o'rganish va tez rivojlanish
Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish	O'z nutqini baholash va takomillashtirish	Audio/video yozuvlar, feedback tizimi	Kamchiliklarni aniqlash va tuzatish
Pedagogik mahoratni oshirish	O'qituvchining nutq orqali ta'sir ko'rsatish qobiliyati	Treninglar, seminarlar, master-klasslar	Professional nutq madaniyati

XULOSA

Bo'lajak nemis tili o'qituvchilari faoliyatida nutq texnikasi va madaniyatini gan nutqqa ega bo'lishi, o'quv materialini talabalar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garovidir. Bolalar o'qituvchi nutqiga juda e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushning noto'g'ri aytilishi kulgiga sabab bo'ladi. Bir ohangdagi nutq tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi o'qituvchining baland ovozidan o'quvchi o'zini aldanayotgandek his etadi. Bu o'qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg'otadi. Ayrim mutaxassislar insonning tovushi va uning tembri tug'ma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, o'quvchilarga ijobiy ta'sir etishni puxta egallashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. S. Abdullayeva, A. A. Xoliqov, H. M. Sodiqov, Sh. Q. Primov, Sh. R. Zarmasov. Umumiy oedagogika. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021.
2. N. Atayeva, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015.
3. A. S. Makarenko. Ta'lim-tarbiya tajribasidan ba'zi bir xulosalar. – Toshkent: “O'qituvchi”, 1988.

УДК: 634.79

ВЛИЯНИЕ ДОЗ АММИАЧНОЙ СЕЛИТРЫ ПРИ ВЕСЕННИХ ПОДКОРМКАХ НА ВЫХОД ЗЕЛЕННЫХ ОТПРЫСКОВ МАЛИНЫ

<https://doi.org/>

Адиллов Хикматилла Абдухалилович, доцент